Milliy huquqiy islohotlarda mazkur talablarning muayyan qismi bosqichma-bosqich o'z aksini topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF–85-son¹ Farmoni bojxona yig'implarining fiskal maqsadlarda undirilmasligi, bojxona qiymatini aniqlash bo'yicha huquqiy bazani takomillashtirish hamda MFN rejimi qo'llanilmaydigan mamlakatlarga nisbatan tarif yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni nazarda tutadi [7]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risida"gi PF–74-son² Farmoni esa bojxona yig'implarining fiskal funksiyasini cheklash yo'nalishidagi islohotlarning izchilligini ta'minlaydi [8]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bojxona yig'implari stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 55-son³ qarori bojxona rasmiylashtiruvchi yig'implarini bojxona organlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar xarajatlarining taxminiy qiymati asosida belgilash hamda import va eksportni rasmiylashtirish stavkalarini o'zaro muvofiqlashtirishni nazarda tutadi [9].

Mavjud tadqiqotlarda JSTga a'zolikning tariflar va ichki ishlab chiqarishga ta'siri asosan umumiy makroiqtisodiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Bojxona to'lovlari bo'yicha tadqiqotlarda esa boj stavkalari, bojxona qiymati, bojxona yig'implari, to'lovni kechiktirish hamda post-audit mexanizmlari ko'pincha alohida yo'nalishlar

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF–85-son Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-7518465>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risida"gi PF–74-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-6913766>

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bojxona yig'implari stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 55-son qarori: <https://lex.uz/docs/-7357270>



sifatida o'rganilgan. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi ushbu elementlarni yagona bo'xona ma'muriyatchiligi tizimi doirasida baholash, 2026-yildagi eng so'nggi huquqiy o'zgarishlarni JST talablari bilan uyg'un holda tahlil qilish hamda natijadorlikni baholash uchun indikatorlar tizimini taklif etishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, institutsional, tizimli va tavsifiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Qiyosiy-huquqiy tahlilda GATT 1994, Bo'xona qiymatini belgilash to'g'risidagi bitim hamda Savdoni soddalashtirish to'g'risidagi bitim qoidalarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi Bo'xona kodeksi, Prezident farmonlari va Hukumat qarorlari bilan qiyoslandi. Institutsional tahlilda tarif siyosati, bo'xona qiymatini aniqlash, bo'xona yig'imi, to'lov qulayliklari, xavfni boshqarish va post-audit o'rtasidagi funksional bog'liqlik tahlil qilindi.

Empirik baza Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil yakunlari hamda 2026-yil yanvar–iyun oylariga oid tashqi savdo ma'lumotlari, shuningdek, JST Kotibiyatining 2026-yil iyul oyidagi rasmiy axborotlari asosida shakllantirildi [3; 13; 14]. Tahlil bo'xona tushumlariga oid maxfiy mikroma'lumotlarga emas, balki ochiq agregat ko'rsatkichlarga tayanganligi sababli tarif o'zgarishlarining budget tushumlariga sababiy ta'siri baholanmadi. Asosiy e'tibor ularning ma'muriy va institutsional yo'nalishlarini tahlil qilishga qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunga kelib O'zbekiston hali JST a'zosi emas, biroq a'zolik paketi yakuniy bosqichga yaqinlashgan. Ishchi guruhning **13-yig'ilishida** bozorga kirish bo'yicha 31 ta ikki tomonlama bitim taqdim etilgani, Hindiston bilan erishilgan kelishuv eng so'nggi bitim ekani hamda qolgan muzokaralar yakuniy bosqichga yaqinlashgani qayd etildi. Shu bilan birga, ayrim qonun hujjatlarining qabul qilinishi davom etayotgani, shuningdek, valyuta va to'lovlar, import tartibotlari, savdoni soddalashtirish, davlat korxonalari hamda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha muzokaralar izchil davom ettirilayotgani ta'kidlangan [3].

Bu holat bo'xona to'lovlari o'ldirilishini ikki asosiy yo'nalishda davom ettirishni taqozo etadi. Birinchi yo'nalish — a'zolik protokoli va tovarlar bo'yicha tarif majburiyatlari jadvalida kelishiladigan stavkalarini milliy boj tarifi bilan texnik jihatdan uyg'unlashtirish. Ikkinchi yo'nalish — bo'xona qiymati, bo'xona yig'imi, to'lov va kafolatlar, shikoyat qilish hamda post-audit tartiblarini JST qoidalariga nafaqat huquqiy, balki amaliy jihatdan ham moslashtirish.

Tahlillar natijalariga ko'ra, **2025-yilda** O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi (TSA) 81,17 mlrd AQSH dollariga yetib, **2024-yilga** nisbatan 20,7 foizga oshgan. Import hajmi 47,35 mlrd AQSH dollarini, eksport hajmi esa 33,81 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan [13]. **2026-yilning birinchi yarmida** TSA 41,01 mlrd AQSH dollariga teng bo'lib, import 21,0 foizga oshgan, eksport esa 8,8 foizga kamaygan (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekiston tashqi savdosining asosiy ko'rsatkichlari⁴

Davr	Tashqi savdo aylanmasi, mlrd AQSH doll.	Eksport, mlrd AQSH doll.	Import, mlrd AQSH doll.	Saldo, mlrd AQSH doll.	O'zgarish, %
2025-yil	81,17	33,81	47,35	-13,54	TSA +20,7; eksport +24,0; import +18,5
2026-yil yanvar–iyun	41,01	15,86	25,15	-9,29	TSA +7,4; eksport -8,8; import +21,0

Import hajmining jadal o'sishi bo'xona qiymatini to'g'ri aniqlash, tarif tasnifi hamda tovarning kelib chiqish mamlakatini belgilash sifatiga bo'lgan talabni oshiradi. Shu bilan birga, tashqi savdo saldosi manfiyligi boj stavkalarini fiskal maqsadlarda keskin oshirishdan ko'ra, tarif majburiyatlari, ichki soliqlar va savdoni soddalashtirish choralarining o'zaro uyg'un ta'sirini kompleks baholash zarurligini ko'rsatadi. JSTga a'zolikdan oldingi tarif pasayishlari yuzasidan tovar guruhlari, import elastikligi, mahalliy ishlab chiqarish hamda budget tushumlari bo'yicha ssenariy hisob-kitoblarini tayyorlash maqsadga muvofiq.

O'zbekiston qonunchiligida JST talablariga yaqinlashish bir necha o'zaro bog'liq yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda (2-jadval).

4 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2-jadval.

JST talablari va O'zbekistondagi amaldagi islohotlarning qiyosiy tahlili⁵

Yo'nalish	JST talabi	Amaldagi milliy o'zgarish	Keyingi vazifa
Tarif va MFN	GATT I-II: a'zolariga nisbatan kamsitmasdan MFN rejimini qo'llash, bog'langan stavkalarga rioya qilish	Bojxona kodeksining 300¹-moddasi bilan 2026-yil 28-fevraldan standart stavka hamda non-MFN rejimidagi yoki kelib chiqishi noma'lum tovarlar uchun 5–20 foizlik qo'shimcha boj joriy etildi.	A'zolik majburiyatlari jadvali bilan milliy stavkalarni to'liq uyg'unlashtirish hamda rejimlar ro'yxatini ochiq yuritish.
Bojxona qiymati	GATT VII va CVA: bitim qiymatining ustuvorligi, usullar ketma-ketligi, yozma asos va shikoyat qilish huquqi	PF-85-son Farmon bojxona qiymatini aniqlash bo'yicha huquqiy bazani takomillashtirish vazifasini belgiladi. Bojxona kodeksi qiymatni aniqlash usullarini tartibga soladi.	Narx ma'lumotlaridan faqat xavf signali sifatida foydalanish, tuzatish sabablarini yozma ravishda bayon etish hamda apellyatsiya amaliyotini raqamlashtirish.
Bojxona yig'implari	GATT VIII va TFA 6: yig'implar miqdori xizmatning taxminiy qiymati bilan cheklanadi, davriy ravishda qayta ko'rib chiqiladi	Vazirlar Mahkamasining 55-son qarori yig'implarni xizmat xarajatlariga bog'ladi. PF-250-son Farmon bilan rasmiylashtiruv yig'imi 20 foizga kamaytirildi.	Har bir yig'im bo'yicha ochiq xarajat kartasini joriy etish, yillik K_x koeffitsiyentini hisoblash va fiskal ortiqchalikni bartaraf etish.
To'lov va kafolat	TFA 7: elektron to'lov, kafolat evaziga tovarni chiqarish, soddalashtirish	PF-250-son Farmon bilan 14 kungacha foizsiz kechiktirish, bojni 120 kungacha kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash hamda xavfga asoslangan pasaytirilgan ta'minot belgilandi.	Ariza, qaror, kafolat va to'lov jadvalini yagona elektron modulga birlashtirish.
Xavf va post-audit	TFA 7.4–7.5: xavfni boshqarish va tovar chiqarib yuborilgandan keyingi audit	PF-250-son Farmon bilan xavf mavjud bo'lmaganda avtomatik rasmiylashtirish kengaytirildi hamda 2026-yil 1-iyuldan "maslahatchi auditor" tamoyili joriy etildi.	Avtomatlashtirish ulushi, tekshiruv natijadorligi va ixtiyoriy tuzatishlarni ochiq ko'rsatkichlar asosida baholash.
Qayta ishlash rejimi	Tariflarning prognoz qilinishi va ichki neytrallik	PF-250-son Farmon hamda Vazirlar Mahkamasining 266-son qarori bilan xomashyo boji tayyor mahsulot bojidan yuqori bo'lgan holatlar uchun 2027-yil 1-martgacha tajriba tartibi belgilandi.	Tajriba natijalarini xarajat-samara tamoyili asosida baholash hamda doimiy tartibga o'tish mezonlarini oldindan belgilash.

Bojxona kodeksining **300¹-moddasi** alohida ahamiyat kasb etadi. Ilgari non-MFN rejimidagi yoki ishlab chiqarilgan mamlakati aniqlanmagan tovarlarga import boji stavkasining ikki baravari qo'llanilgan bo'lsa, **2026-yil 28-fevraldan** boshlab advalor stavka diapazoniga qarab 5, 10, 15 yoki 20 foizlik qo'shimcha boj belgilandi [10]. Mazkur o'zgarish tarif yukini yanada differensiallashtirishga hamda avval qo'llanilgan "ikki baravar" mexanizmini yanada maqbullashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, a'zolikdan so'ng JST a'zolariga MFN rejimini avtomatik va yagona tartibda qo'llashni ta'minlash maqsadida mamlakatlar rejimi, tovarning kelib chiqishi hamda qo'shimcha bojni hisoblash mexanizmlarini bojxona axborot tizimiga to'liq integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bojxona yig'implari sohasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bojxona yig'implari stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 55-son qarori xizmat xarajatlariga asoslangan yondashuvni huquqiy jihatdan mustahkamladi [9]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 17-dekabrda "Bojxona ma'muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-250-son⁶ Farmon bilan bojxona rasmiylashtiruvi yig'imining 20 foizga kamaytirilishi ham ma'muriy xarajatlarni qisqartirishga yo'naltirildi [11]. Shu bilan birga, JST talablariga muvofiqlikni amaliy jihatdan namoyon etish maqsadida yig'im stavkalarini belgilash metodikasi, xizmatlarning mehnat va texnologik xarajatlari, avtomatlashtirish natijasida erishilgan tejam hamda yig'im tushumining xarajatlarga nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni ochiq e'lon qilish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 17-dekabrda "Bojxona ma'muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-250-son Farmon to'lovlarni kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash, xavf darajasiga qarab ta'minotni kamaytirish,

⁵ JST bitimlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida muallif ishlanmasi

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 17-dekabrda "Bojxona ma'muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-250-son Farmon: <https://www.lex.uz/ru/docs/-/7934915>



avtomatik rasmiylashtirish hamda post-audit tizimini rivojlantirish orqali bojxona ma'muriyatchiligini tranzaksiya vaqtida to'liq nazorat qilish modelidan ishonch va keyingi auditga asoslangan zamonaviy modelga bosqichma-bosqich o'tkazishga xizmat qilmoqda [11]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 266-son⁷ qarori esa bojxona hududida qayta ishlashdan so'ng erkin muomalaga chiqariladigan ayrim tayyor mahsulotlar uchun bojni hisoblash bo'yicha 2027-yil 1-martgacha amal qiladigan tajriba mexanizmini belgiladi [12]. Mazkur tajriba tarif inversiyasini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, uning natijalarini import boji tejalishi, qayta ishlash hajmi, qo'shilgan qiymat, budjetga ta'siri hamda ehtimoliy suiiste'mol xavfi ko'rsatkichlari bo'yicha baholash maqsadga muvofiq.

Huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi o'z-o'zidan bojxona ma'muriyatchiligining samaradorligini to'liq ta'minlamaydi. Shu sababli JSTga a'zolikdan oldingi va keyingi davr natijalarini qiyosiy baholash uchun bojxona to'lovlari tizimi bo'yicha yagona indikatorlar panelini joriy etish maqsadga muvofiq (3-jadval).

3-jadval.

Bojxona to'lovlari ma'muriyatchiligini baholash indikatorlari⁸

Ko'rsatkich	Hisoblash	Boshqaruv maqsadi
Import bilan tortilgan o'rtacha boj stavkasi ($\bar{T}$)	$\Sigma(M_i \times t_i) / \Sigma M_i$	Tarif majburiyatlari bilan amaldagi tarif yuki o'rtasidagi farqni baholash
Yig'im xarajatini qoplash koeffitsiyenti (K_x)	Yig'im tushumi/xizmat xarajati $\times 100$	Yig'implarning fiskal tus olmasligini nazorat qilish
Avtomatik rasmiylashtirish ulushi (A)	Avtomatik deklaratsiyalar/jami deklaratsiyalar $\times 100$	Raqamlashtirish darajasi va xavf selektivligini baholash
Bitim qiymatini qabul qilish ulushi	Bitim qiymati qabul qilingan holatlar/jami import deklaratsiyalari $\times 100$	CVA talablarining amaliy qo'llanilishini baholash
Kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash qamrovi	Imtiyozli muddat berilgan boj/jami import boji $\times 100$	Aylanma mablag'larni qo'llab-quvvatlash ta'sirini baholash
Post-audit qaytimi	Auditda aniqlangan qo'shimcha to'lov/audit xarajati	Nazorat resurslarining iqtisodiy samaradorligini baholash
Shikoyatlarni hal etish muddati	O'rtacha kalendar kun	Huquqiy aniqlik va protsessual kafolatlarni baholash

Mazkur indikatorlar tariflarni avtomatik ravishda pasaytirish yoki bojxona tushumlarini maksimal darajada oshirishga emas, balki uchta asosiy natijani kompleks boshqarishga xizmat qiladi: JST majburiyatlariga muvofiqlikni ta'minlash, bojxona nazoratining fiskal samaradorligini oshirish hamda tashqi savdo ishtirokchilarining muvofiqlik xarajatlarini optimallashtirish. Mazkur ko'rsatkichlar tovar guruhlari, hududiy bojxona organlari va xavf toifalari kesimida e'lon qilinsa, normativ-huquqiy qarorlarning amaliy ta'sirini muntazam baholash imkoniyati yanada kengayadi.

Tahlil natijalari O'zbekistonda bojxona to'lovlari JST talablariga yaqinlashtirish bo'yicha sezilarli huquqiy baza shakllanganini ko'rsatadi. Bojxona yig'implarini xizmat xarajatlariga bog'lash, fiskal maqsadlarni cheklash, non-MFN tarif yondashuvini differensiallashtirish, to'lovlarni kechiktirish, xavfga asoslangan kafolat mexanizmlarini joriy etish hamda post-audit tizimini rivojlantirish xalqaro standartlarning asosiy yo'nalishlariga mos keladi. Ayniqsa, **2026-yilda** import hajmining 21 foizga o'sishi sharoitida bojxona rasmiylashtiruvini tezlashtirish bilan bir qatorda, bojxona qiymati, tarif tasnifi va tovarning kelib chiqishini aniqlash bo'yicha nazorat sifatini saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, muvofiqlikning huquqiy va amaliy darajalari o'rtasida ayrim tafovutlar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, bojxona yig'implarining "taxminiy xizmat qiymati"ga asoslanganini normativ jihatdan belgilashning o'zi yetarli emas. Xizmat xarajatlarini hisoblash metodikasi hamda uning natijalari davriy ravishda e'lon qilinishi maqsadga muvofiq. Xuddi shuningdek, Bojxona kodeksida bitim qiymati usulining ustuvorligi belgilangan bo'lsa-da, narx ma'lumotnomalari yoki xavf profillari amaliyotda bojxona qiymatini avtomatik ravishda oshirish vositasiga aylantirilmasligi lozim. Ular faqat qo'shimcha tekshiruv uchun xavf indikatorlari sifatida qo'llanilishi, yakuniy tuzatish esa tegishli hujjatlar hamda yozma asos bilan tasdiqlanishi zarur.

Tarif majburiyatlarining budjetga ta'siri ham kompleks yondashuv asosida baholanishi maqsadga muvofiq. Boj stavkalarining pasayishi bir birlik importdan olinadigan boj tushumini kamaytirishi mumkin, biroq import bazasining kengayishi, norasmiy savdoning qisqarishi, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) tushumlarining ortishi

⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 266-son qarori: <https://lex.uz/docs/-2752511>

⁸ Muallif ishlanmasi

hamda ma'muriy xarajatlarning kamayishi ushbu ta'sirni qisman kompensatsiya qilishi mumkin. Shu bois har bir asosiy tovar guruhi bo'yicha "stavka – import hajmi – mahalliy ishlab chiqarish – boj va QQS tushumi – iste'molchi narxi" zanjiri asosida ssenariyli modellash tirishni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning JSTga a'zolik jarayoni 2026-yil iyul oyiga kelib yakuniy bosqichga yaqinlashdi. Xususan, Ishchi guruhning 13-yig'ilishi o'tkazildi, bozorga kirish bo'yicha 31 ta ikki tomonlama bitim taqdim etildi hamda milliy qonunchilikni JST talablariga muvofiq lashtirish jarayoni sezilarli darajada kengaydi. Shu bilan birga, bojxona to'lovlari tizimining samaradorligi faqat tarif stavkalarini kelishish bilan emas, balki bojxona qiymatini aniqlash, bojxona yig'implari, to'lov qulayliklari, kafolat mexanizmlari, xavfni boshqarish hamda post-audit tizimining amaliy samaradorligi bilan ham belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

A'zolik paketi doirasida kelishiladigan bog'langan tarif stavkalari hamda amaldagi boj stavkalari bo'yicha TIF TNning o'n xonali darajasida ochiq elektron taqqoslash reyestrini yaratish, unda MFN rejimi, erkin savdo rejimi va qo'shimcha boj rejimlarini alohida aks ettirish.

Bojxona yig'implari bo'yicha xizmat ko'rsatish jarayoni, xodimlar va axborot tizimlari xarajatlarini qamrab oladigan yagona kalkulyatsiya metodikasini tasdiqlash hamda har yili K_x koeffitsiyentini e'lon qilish. Mazkur koeffitsiyent 100 foizdan barqaror yuqori bo'lgan holatlarda yig'im stavkalarini qayta ko'rib chiqish.

Bojxona qiymatini nazorat qilish jarayonida bitim qiymatini rad etish sabablarini deklarantga elektron shaklda yozma ravishda yetkazish, dalillar bilan tanishish va apellyatsiya qilish imkoniyatini ta'minlash, narx ma'lumotlaridan esa yakuniy qiymat sifatida emas, faqat xavf indikatori sifatida foydalanish.

Bojxona bojini kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash hamda pasaytirilgan ta'minotni qo'llash bo'yicha ariza, xavf bahosi, qaror, kafolat va to'lov jadvalini "Yagona darcha" tizimi doirasidagi yagona raqamli modulga birlashtirish.

Avtomatik rasmiylashtirish va post-audit o'rtasida xavfga asoslangan resurs taqsimoti mexanizmini joriy etish hamda natijadorlikni avtomatik rasmiylashtirilgan deklaratsiyalar ulushi, tovarni chiqarish vaqti, ixtiyoriy tuzatishlar, qo'shimcha hisoblangan to'lovlari va shikoyatlarni ko'rib chiqish natijalari asosida baholash.

Tarif majburiyatlarining fiskal ta'sirini baholashda faqat import bojini emas, balki QQS, aksiz solig'i, savdo hajmining o'zgarishi, muvofiqlik xarajatlari hamda norasmiy importning qisqarishini ham qamrab oladigan ko'p ssenariyli baholash modelini joriy etish.

Takliflarning amalga oshirilishi O'zbekistonning JSTga a'zolik majburiyatlarini samarali bajarish bilan bir qatorda bojxona to'lovlari ma'muriyatchiligini shaffof, prognoz qilinadigan va iqtisodiy jihatdan asoslangan tizim sifatida yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Natijada fiskal manfaatlar saqlangan holda tashqi savdo ishtirokchilarining huquqiy aniqligi hamda raqobatbardoshligini yanada oshirish uchun qulay sharoit yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Trade Organization. *Who We Are: Membership and World Trade Coverage* [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/who_we_are_e.htm (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).
2. World Trade Organization. *Accession Status: Uzbekistan. Working Party Established on 21 December 1994* [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/a1_ouzbeistan_e.htm (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).
3. World Trade Organization. *Uzbekistan Reaffirms 2026 WTO Accession Goal, 27–28 July 2026* [Elektron resurs]. – 2026. – Kirish rejimi: https://www.wto.org/english/news_e/news26_e/acc_27jul26_470_e.htm (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).
4. World Trade Organization. *General Agreement on Tariffs and Trade 1947, Incorporated into GATT 1994* [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/gatt47_e.htm (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).
5. World Trade Organization. *Agreement on Implementation of Article VII of GATT 1994 (Customs Valuation Agreement)* [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/cv_e.htm (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).
6. World Trade Organization. *Agreement on Trade Facilitation* [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/tfa_e.htm (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi PF–85-son Farmoni. "Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiq lashtirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: <https://lex.uz/docs/-6949734> (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-apreldagi PF–74-son Farmoni. "Bozor islohotlari va O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zoligiga erishishni yanada jadallashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: <https://lex.uz/docs/-7508059> (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-yanvardagi 55-son qarori. "Bojxona yig'implari stavkalarini tasdiqlash to'g'risida" [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: <https://lex.uz/docs/-7357270> (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).



10. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi [Elektron resurs]. – 2016-yil 20-yanvar. – 2026-yil 2-avgust holatidagi amaldagi tahrir. – Kirish rejimi: <https://lex.uz/docs/-2876354> (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrdagi PF–250-son Farmoni. *“Bojxona ma'muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish hamda samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”* [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: <https://lex.uz/docs/-7934915> (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 21-maydagi 266-son qarori. *“Bojxona hududida qayta ishlangan tayyor mahsulotlarni erkin muomalaga chiqarishda tovarlarning bojxona qiymatini belgilash va ular bo'yicha bojxona to'lovlarini hisoblash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”* [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: <https://lex.uz/docs/-8215222> (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).
13. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *2025-yil yanvar–dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasi* [Elektron resurs]. – 21.01.2026. – Kirish rejimi: https://stat.uz/img/news/press-reliz-en-_p94457.pdf (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).
14. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *2026-yil yanvar–iyun oylarida tashqi savdo aylanmasi* [Elektron resurs]. – 29.07.2026. – Kirish rejimi: https://stat.uz/img/press-relizlar/press_release_uzb_p57994.pdf (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100